

ESHTISHIDA NUQSONI BOR BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKSION ISHLAR

Dilorom Yaqubova Baltaboevna

Xorazm viloyati Bog'ot tumani 16 son KTI MTT

Eshtishida nuqsoni bor bolalar guruhi defektolog

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada eshtishida nuqsoni bor bolalar bilan olib boriladigan koreksion ishlar, zaif eshituvchi bolalar uchun maxsus tashkil etilgan maktabgacha tarbiya muassasasi hamda matab-internatda barcha zarur shart-sharoitlar haqida so`z yuritiladi

KALIT SO`ZLAR: meningoensefalit, korreksion rostlaydigan sharoit, zaharli kimyoviy dorilar, quloq suprasi, aqliy rivojlanish

KIRISH

Defektoglarning bergan ma'lumotlariga ko`ra, eshtishida nuqsonlari bor bolalarning rivojlanish darajasi shu nuqsonning bola hayotining qaysi davrida paydo bo`lganligiga va og`ir-yengilligiga bog`liq. Surdopedagogikada eshtishida nuqsonlari bor bolalar kar, zaif eshituvchi, keyinchalik zaif eshituvchi bo`lib qolgan bolalar guruhiga bo`lib o`rganiladi. Tug`ma, hali tili chiqmagan go`daklik davrida ikkala qulonning mutlaqo eshitmasligi kar-soqovlikka olib keladi. Eshitish qobiliyatining qisman buzilishi natijasida nutqiy nuqsonga uchragan bolalar zaif eshituvchi bolalar guruhiga kiritiladi. Nutqi rivojlanib, shakllanib olgandan so`ng yaxshi eshitmaydigan bo`lib qolgan bolalar keyinchalik zaif eshituvchi bo`lib qolganlar guruhiga kiradi. Bu nuqson nutq tarkib topganidan so`ng vujudga kelsa ham, qulodagi nuqson tufayli eshtishda xos kamchiliklar bo'laveradi. Turg'un eshitish nuqsonlari kelib chiqish sabablariga ko`ra tug`ma va orttirilgan bo`lishi mumkin. Kar-soqov bolalarning 25-30 foizida eshitish nuqsonlari tug`ma bo`ladi. Bunga sabab: onaning xomiladorlik davrida turli kasalliklar, masalan, gripp bilan kasallinishi, ota-onalaming ichkilik ichib turishi, onaning xomiladorlik davrida bilar-bilmas dori-darmonlami iste'mol qilishi (ayniqsa streptomitsin, xinin, singari dorilarni), xomilaning shikastlanishi; irlisyat, genetik faktorlar (quloq tuzilishidagi patologik o'zgarishlar bo`lishi, masalan, eshitish yo'li atreziyasi — bituvi). Eshitishdagi orttirilgan nuqsonlar quloq yoki eshitish analizatorining tuzilishidagi kamchiliklardan kelib chiqishi mumkin. Bunga oliy nerv markazi, o'tkazuvchi yo'llar yoki qulonning o'zidagi o'zgarishlar sabab bo`ladi. Bolaning ilk yoshida otit, parotit (tepki), meningit, meningoensefalit, qizamiq, qizilcha, gripp kasalliklari bilan kasallanishi ba'zi hollarda kar-soqovlik yoki turli darajalardagi zaif eshitishga olib kelishi mumkin.

ASOSIY QISM

Hozirgi kunda ekologiya masalalalaming keng o'rganishi eshitish nuqsonlarining oldini olishda ham katta ahamiyatga ega. Eshitish analizatoriga turli zaharli kimyoviy dorilar juda kuchli ta'sir etib, ayniqsa analizatoming o'tkazuvchi nevrlarini ishdan chiqaradi, natijada bola yaxshi eshita olmaydigan bo`lib qoladi. Eshitish nuqsonlariga ega bo`lgan bolalar anomal bolalar kategoriyasiga kiradi, chunki bu nuqson bolaning umuman rivojlanib, kamol topib borishiga, dastur materiallarini o'zlashtirishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Eshtish nuqsonlari bor bolalar maxsus sharoitda, maxsus usullar bilan o'qitilishi va tarbiyalanishi kerak. Eshitish nuqsonlarining yengil darajalari ham bolaning har tomonlama

rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, bog'cha va maktab dasturlarining o'zlashtirishda bir qator o'ziga xos qiyinchiliklar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Kichik yoshdag'i bolalarning eshitish qobiliyati nutqi rivojlangandan so'ng, masalan, ikki yoshida yo'qolganida ham karlik natijasida bola atrofdagilar nutqini eshitmaydi va hattoki bilganlarini ham asta-sekin unutadi, boladagi karlik bilan soqovlik qo'shilib u kar-soqov bo'lib qoladi. Bolaga o'z vaqtida maxsus yordam ko'rsatilmasa, unda aqli zaiflik belgilari ham paydo bo'ladi. Biroq nuqsonning o'rnini to'ldirib, boshqaruvchi jarayonlarni aktivlashtiruvchi maxsus, korreksion rostlaydigan sharoit boladagi nuqsonlarni bartaraf etib, ulaming ham nutqiy rivojlanishini, ham umumiy, aqliy rivojlanishini ta'minlaydi. Zaif eshituvchi bolalar uchun maxsus tashkil etilgan maktabgacha tarbiya muassasasi hamda maktab-intematda barcha zarur shart-sharoitlar mavjud. Maxsus muassasalardagi tarbiyachi va o'qituvchilar bunday bolalarning tegishli ta'lim-tarbiya olishlariga yordam berishlari kerak. Yuqorida qayd etilganidek, surdopedagogikada eshitish qobiliyati zaif bolalarga kar-soqov, tug'ma hamda keyinchalik zaif eshituvchi bo'lib qolgan bolalar kiradi. Zaif eshituvchi bolalar o'z navbatida eshitish qobiliyatining nechog'liq buzilganiga qarab yengil, o'rta va og'ir darajali kamchiligi bor bolalarga bo'linadi. Yengil darajadagi zaif eshituvchi bolalar ovoz bilan gapirlgan nutqni 6-8 m masofadan ovoz chiqarmay, shivirlab gapirlgan gapni qulq suprasidan 3—6 m masofada eshitadi. O'rta darajadagi qulog'i og'ir bolalar ovoz chiqarib gapirlgan gapni 4-6 m, ovozsiz pichirlab gapirlganini 1-3 m masofadan eshitadi. Og'ir darajali qulog'i zaif eshitishda bola o'rta me'yorda ovoz bilan gapirlgan gapni qulq suprasidan 2 m, shivirlashni 0,5 m masofadan eshitadi, xolos. Qulog'i og'irlik natijasida bola nutqida bir qator kamchiliklar kuzatiladi: lug'atining kambag'al bo'lishi, grammatik komponent rivojlanmagan — gap ichida so`zlarni tashlab ketish, so`zlamni noto`g'ri ishlatish, ularni o'zaro bog'lay olmaslik, kelishik, so`z yasovchi, so`z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni ishlata olmaslik; tovushlarni noto`g'ri talaffuz qilish — o'xshash, jarangli-jarangsiz undoshlami bir-biri bilan adashtirish, tushirib ketish va boshqalar shular jumlasidandir. Bola nutqidagi kamchiliklaming kelib chiqish sabablarini bilmaslik orqasida ayrim tarbiyachi va o'qituvchilar bolani dangasa, mas'uliyatsiz, bezori deb, unga noto`g'ri munosabatda bo'lishadi, natijada bola injiq, yig'loqi, serjaxl, gap o'tmas bo'lib qoladi, ya'ni unda ikkilamchi ruhiy o'zgarishlar paydo bo'ladi. Yengil darajadagi zaif eshituvchi bolalar sog'lom tengdoshlari qatorida ommaviy maktabgacha tarbiya muassasalarida va maktabda ta'lim-tarbiya olishi mumkin. Biroq ularga alohida munosabatda bo'lish, ular uchun qulay shart-sharoitlar yaratish talab etiladi. Uzluksiz ta'lim tizimida O'zbekistonda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktabgacha tarbiya muassasalari, maktab va kasb-xunar kollejlarida maxsus guruhlar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ushbu toifadagi bolalar uchun tashkil etilgan maktab-internatlarda maktabgacha tarbiya bo'limi xamda umumta'lim maktab bo'limi mavjud. Ushbu muassasalarda ta'lim umumta'lim 9 yillik ta'limning davlat talablari va dasturlari asosida amalga oshiriladi.

Eshitish qobiliyati zaiflashgan bolalar bilan ishslashda surdopedagoglar katta yutuqlarga erishmoqdalar. Ushbu toifadagi anomal bolalar maxsus kechki makkablardaga ta'lim olganlaridan keyin oliy o'quv yurtlarini ham muvaffaqiyatli bitirib chiqmoqdalar, mamlakatimizning turli korxonalarida hamma bilan baravar mehnat qilmoqdalar. Demak, eshitish nuqsonlarini bartaraf etish, to'la kompensatsiyalash, mumkin.

XULOSA

Tarbiyachi va o'qituvchilaming asosiy vazifasi — sog'lom bolalarni zaif eshituvchi bolalardan ajratib, ularga alohida yondashish, zarur bo'lsa, ularning "maxsus muassasalarda ta'lim-tarbiya olishini yoki integratsiyalashgan ta'limga jalb etilishini ta'minlashdan iborat. Maxsus muassasalarda o'z fikrini og'zaki ifodalay olmasligini his etgan o'quvchi yozma shaklda bayon etishni bilishi kerak. Buning uchun o'quvchilami o'z fikrini og'zaki, yozma bayon etishga o'rgatish amaliy nutqiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish asosida amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR

1. Raxmanova V.S. Defektologiya asoslari. -T ..1991
2. Inklyuziv ta'lim. - T u ve D jo nson M ejregion alnay a programma po obucheniyu invalidov (Opereyshin Mersi) Vsemirny forum po obrosovaniyu Zaklyuchitelniy doklad Nyu York, 1990
3. Bola huquqlari to`g'risida konvensiya. - O 'zbekiston bolalar jamg'armasi.
4. K . K. Mamedov, G.B Shoumarov. V. P. Podobed Ruhiy rivojlanishi sustalashgan bolalar haqida T., 1993.
5. Pulatova F.M. Oligofrenopedagogika
6. V. S . Raxmanova Maxsus pedagogika. T., 2005 7. T>. B. Shoumarov va boshqalar. 1001 savolga psixologning 1001 javobi. T., " Mehnat"